

AT "Aloqabank"
Boshqaruvi yig'ilishining
2024-yil 13 may dagi
300- sonli bayoniga
___ - ilova

**"Korporativ va kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi"ga
kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

AT "Aloqabank" Boshqaruvi yig'ilishining 2023-yil 27-apreldagi 205-son bayoni bilan tasdiqlangan va 845-son bilan ro'yxatga olingan "Korporativ va kichik biznes subyektlarini kreditlash tartibi" (bundan buyon matnda "Tartib" deb yuritiladi)ga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

I. Tartibning "VIII. Kreditlarni so'ndirish" bo'limiga quyidagicha yangi kichik bandlar qo'shilsin:

"8.17. Kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va shartlarini qayta ko'rib chiqishning qo'shimcha tartiblari:

8.17.1. Kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini 2 (ikki) martadan ortiq uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

8.17.2. Kreditlar shartlarini (to'lov bilan bog'liq) 4 (to'rt) martadan ortiq qayta ko'rib chiqishga (muddatini uzaytirish bilan birga) yo'l qo'yilmaydi.

8.17.3. Kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish, shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha hujjatlarni shakllantirish hamda amaliyotlar bajarish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

a) kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va/yoki shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ariza bilan birga ta'sischi qarori, biznes-rejaga qo'shimcha o'zgarishlar va arizada ko'rsatilgan holatlarni asoslovchi tegishli hujjatlar olinishi lozim.

Agar kreditning oxirgi qaytarish muddati uzaytiriladigan bo'lsa, ta'minot hujjatlariga ham tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Bunda kafillik hamda sug'urta shartnomalariga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirilib, ularning muddatlari kredit muddatiga moslashtiriladi va tegishli hujjatlar rasmiylashtiriladi.

b) kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va/yoki shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha ariza kelib tushganda, kredit komissiyasi a'zolari tomonidan mijozning faoliyati joyiga chiqib o'rganiladi hamda o'rganish natijalari yuzasidan tegishli dalolatnoma (Tartibning 5-ilovasi) shakllantiriladi.

Bunda o'rganish mijozning istiqboldagi tushumlari, uning ishlab chiqarish zaxiralari hamda kreditni o'zgartiriladigan shartlar asosida to'lay olish qobiliyatini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Shuningdek, o'rganish natijalariga asosan kredit bo'yicha garov ta'minoti yetmasligi holati aniqlansa, qo'shimcha likvid garov so'ralishi yoki garov mulkini boshqa likvid mol-mulk garovi bilan almashtirish talab qilinishi mumkin.

d) kreditlar oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va/yoki shartlarini qayta ko'rib chiqishga mijozning faoliyati mavjud bo'lgandagina yo'l qo'yiladi.

Bunda obyektiv omillar (tabiiy ofatlar, transport faoliyati bo'yicha yo'l-transport hodisasi va boshqalar)ni inobatga olgan holda, asoslovchi hujjatlar mavjud bo'lganda tegishli vakolatli organning ijobiy qarori asosida istisno taqdim qilinishi mumkin.

e) kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va/yoki shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha dastlabki hujjatlar, tegishli bo'linmalar xulosalari olinganidan keyin masala Kredit komissiyasida ko'rib chiqiladi.

Qaror qabul qilish Kredit komissiyasidan yuqori vakolatli organga tegishli hollarda masalalar kredit ajratilishi bilan bog'liq biznes-jarayon asosida ko'rib chiqiladi.

Bunda vakolatlar darajasi kreditning masala ko'rib chiqilayotgan kundagi qoldig'i hamda Tartibning 8.16.-bandi qoidasi va qonunchilikda nazarda tutilgan tegishli asoslardan kelib chiqqan holda belgilanadi.

f) kreditlarning oxirgi qaytarish muddatini uzaytirish va/yoki shartlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha tegishli vakolatli organ ijobiy qarori qabul qilinganida kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtiriladi va to'lov grafigi qayta rasmiylashtiriladi.

Bunda kredit bo'yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi" (bundan buyon matnda "Jamg'arma" deb yuritiladi)ning kompensatsiyasi mavjud bo'lganda, kredit shartnomasiga qo'shimcha kelishuv hamda yangi to'lov grafigi Jamg'armaning mazkur masala bo'yicha roziligi olinganidan keyin rasmiylashtiriladi.

8.18. Barcha zarur hujjatlar to'liq rasmiylashtirilganidan so'ng Monitoring va nazorat markazi xodimlari tomonidan hujjatlar to'liqligi tekshirilib, xatolik mavjud bo'lmasa, Bankning "Colvir" ABTda tegishli amaliyotlar bajariladi".

II. Tartibga kiritilayotgan ushbu o'zgartirishlar va qo'shimchalar o'rnatilgan tartibda tasdiqlangan hamda ro'yxatga olingan kundan boshlab kuchga kiradi.